



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

**YANGI O‘ZBEKISTONNING MUMTOZ TILSHUNOSLIK MEROSI,
ZAMONAVIY LINGVISTIK QADRIYATI
HERITAGE OF CLASSICAL LINGUISTICS OF NEW UZBEKISTAN,
MODERN LINGUISTIC VALUE**

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/MYLI9646

Abdullayev Jumanazar Xudoyberdiyevish,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Guliston davlat universiteti
j.abdullayev@miyl.ru

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek an‘anaviy-analitik, sistem-struktur va antroposentrik tilshunosliklarining til ilmi va ta‘limi, til amaliyotida tutgan o‘rni va roli, ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shu munosabat bilan o‘tgan asrda qariyb yetmish yil hukmronlik qilgan an‘anaviy-analitik tilshunoslik va shu asrning 90-yillarida uning o‘rnini egallagan sistem-struktur tilshunoslikning va hozirda ko‘plab amaliy yo‘nalishlarda shiddat bilan rivojlanib borayotgan antroposentrik tilshunoslikning tilni tadqiq qilish asoslari, tamoyillari, metod-usullari, erishgan ilmiy-nazariy, amaliy-metodik, ta‘lim-tarbiyaviy yutuqlariga nazar tashlanib, ularning afzallik tomonlari ilmiy asoslangan. Bunda an‘anaviy-analitik, sistem-struktur tilshunoslik yo‘nalishida erishilgan natijalarning nafaqat ularning o‘ziga tegishli muammo-masalalar yechimida, balki antroposentrik tilshunoslikning shakllanishi va taraqqiy etishida ham ilmiy-amaliy, nazariy poydevor vazifasini o‘tagani va o‘tayotganiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shular asosida o‘zbek tilshunosligi, ona tili ta‘limi va o‘zbek tili amaliyotining tarixiy taraqqiyotida har biri o‘ziga yarasha muhim rol o‘ynagan va oynayotgan an‘anaviy-analitik va sistem-struktur tilshunoslik Yangi O‘zbekistonning noyob ilmiy merosi, antroposentrik tilshunoslik esa zamonaviy lingvistik qadriyati sifatida talqin qilingan.

Kalit so‘zlar. o‘zbek an‘anaviy-analitik, sistem-struktur va antroposentrik tilshunosligi; til ilmi, til ta‘limi, til amaliyoti; nutq, nutqiy birliklar tilshunosligi; lison, lisoniy birliklar, lison tilshunosligi; tilda shaxs omili va shaxsda til omili.

Annotation. The article discusses the role and place of Uzbek traditional-analytical, system-structural and anthropocentric linguistics in linguistic science and education, language practice, and their scientific-theoretical and practical significance. In this regard, the foundations, principles, methods and techniques of language research of traditional-analytical linguistics, which dominated for almost seventy years in the last century, and system-structural linguistics, which replaced it in the 90s of this century, and anthropocentric linguistics, which is currently developing rapidly in many practical areas, are reviewed, and their advantages are scientifically substantiated. In this regard, special attention is paid to the fact that the results achieved in the direction of traditional-analytical,

system-structural linguistics have served and continue to serve as a scientific-practical, theoretical foundation not only in solving their own problems, but also in the formation and development of anthropocentric linguistics. Based on these, traditional-analytical and system-structural linguistics, each of which has played and continues to play an important role in the historical development of Uzbek linguistics, native language education, and Uzbek language practice, are interpreted as a unique scientific heritage of New Uzbekistan, and anthropocentric linguistics is interpreted as a modern linguistic value.

Keywords: *Uzbek traditional-analytical, system-structural and anthropocentric linguistics; linguistics, language education, language practice; speech, linguistics of speech units; language, linguistic units, linguistics of language; the individual factor in language and the linguistic factor in the individual.*

Sir emaski, Respublikamizda ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohasida miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tish ro‘y beryapti. O‘zbek til ilmi va til ta’limi ham shunday jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Ilm-fan uchun tabiiy bo‘lgan bu holat o‘zbek tilshunosligida XX asrning 80-yillaridan kirib kelgan va 90-yillarda keng yoyilib, an’anaviy-analitik tilshunoslik o‘rnini egallagan sistem-struktur tilshunoslikning 2000-yillarda apogeyiga ko‘tarilishi va XXI asrning o‘ninchi yillaridan o‘z o‘rnini yangi lingvistik ta’limot – antroposentrik tilshunoslikka bo‘shatib bergani asnosida yuz bermoqda. Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligining sifat va samaradorlik darajasining yuqori qiymati o‘z ichida lingvopragmatika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, korpus lingvistikasi kabi ko‘plab amaliy yo‘nalishlarda shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan antroposentrik tilshunoslikka tegishlidir. Bejiz bunday bo‘lgani yo‘q, albatta. Gap shundaki, tilshunoslik endigina ayni o‘z tabiati, ta’bir joiz bo‘lsa, mentalitetiga mos va muvofiq tadqiq yo‘lida rivojlanishga tushdi. Negaki, aslida tilshunoslik umuman qandaydir mavhum tushuncha ma’nosidagi til emas, balki aynan inson tili haqidagi ilmiy ta’limotdir. Zotan, biz bilgan tilni insondan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tilning borligi-borlig‘i uning insoniyligida, inson bilangina mavjudligida, harakat-faoliyati inson bilangina belgilangani, insonsiz amalga oshmasligida. Til shaxsi va shaxs tili tushunchalari [Махмудов, 2012: 6-7] bejiz paydo bo‘lgani, dolzarblashgani yo‘q. Til shaxslidir. Har qanday nutq egali – u yoki bu shaxsniki. Shaxsga tegishlilik tilning, nutqning fundamental, hech qachon o‘zgarimas tamoyili. Shaxs esa doimiy rivojlanishdagi nihoyatda ko‘p tomonli, serqirra, o‘ta murakkab mohiyatli, o‘zgaruvchan ijtimoiy-individual hodisa. Uning jismoniy, aqliy, hissiy-ruhiy, etnik, ijtimoiy tomonlarining o‘zi xilma-xil jihat, xossa-xususiyatlar jamuljamligidan iboratki, shularning o‘ziyoq shaxs va til, til va shaxs, jamiyat muammolari, shaxsning tilda nutq orqali namoyon bo‘ladigan rang-barang olami manzaralarini o‘rganadigan antroposentrik tilshunoslik uchun hali-beri tugamaydigan tadqiqot mavzu-masalalariga keng yo‘l ochadi. Yaqin kelajakda bu tilshunoslikning hozirda mavjud o‘nga yaqin yo‘nalishlari [Хакимов,

2001; Сафаров, 2006, 2008; Азимова, 2008; Махмудов, 2012: 6-7; Худойберганова, 2015; Лутфуллаева, Худойберганова, 2016] yonida bundan ham ko‘proq tarmoqlari yuzaga kelsa, hech ajab emas, aksincha, insonning xilma-xil ehtiyojlari, istaklari, maqsad-muddaolari, harakat-faoliyatini ro‘yobga chiqarish maydoni bo‘lgan ijtimoiy hayot taraqqiyotining o‘zi shuni taqozo etmoqda. Ijtimoiy-insoniy hayotning, undagi moddiy, ma‘naviy-ruhiy, intellectual, hissiy o‘zgarishlarning kattasidan tortib eng kichigigacha tilda aks etmasdan, ifodalanmasdan qolmaydi. Tilning o‘z egasi va u yashayotgan jamiyat, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq jihatlari shunchalar ko‘p va serqirradi, ular orasida hali ochilmagan qo‘riqlari, kashf etilmagan qirralari ham bo‘lishi hech ehtimoldan uzoq emas...

Ammo ayni o‘rinda biz e‘tiborni bu masalalar bilan bog‘liq boshqa bir masalaga – tilshunosligimiz taraqqiyotining barometri bo‘lib turgan ushbu antroposentrizm jarayonining shakllanishida tayanch bo‘lgan ikki omil - tadqiq obyektini antroposentrik tilshunoslik bilan bir xil, bitta bo‘lgan, biroq tilga munosabatda, uni tadqiq qilishda har biri undan va bir-biridan farq qiluvchi o‘z nuqtayi nazari, ko‘zqarashi, metod-usullariga ega an‘anaviy-analitik va sistem-struktur tilshunoslikning o‘rni va roliga qaratmoqchimiz. Zotan, antroposentrik tilshunoslikning har qanday yangi yo‘nalishi an‘anaviy-analitik va sistem-struktur tilshunoslik tomonidan belgilanib, tasniflangan va tavsiflangan til birliklarining ijtimoiy shaxs omili bilan shambarchas bog‘liq amaliy-pragmatik ma‘naviyatlarini tahlil-u talqin qilish asosida yuzaga kelgan ilmiy natijalar, hukm-hulosalardir. Shu ma‘noda hech ikkilanmay aytish mumkinki, an‘anaviy-analitik va sistem-struktur tilshunoslik erishgan amaliy-metodik, ilmiy-nazariy natijalar zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari zahirida ular bilan birga yashamoqda.

Qolaversa, mazkur tilshunosliklarning ilmiy-nazariy, amaliy-metodik ahamiyati shu bilangina chegaralanmaydi. Tilshunosligimizning amaliy tatbiqi, amaliy tilshunoslik masalalariga chuqurroq nazar tashlasak, o‘zbek tilshunosligida nafaqat yaqin yillargacha yetakchilik qolgan sistem-struktur, balki unga zamin bo‘lgan an‘anaviy-analitik tilshunoslikning o‘rni va roli ham vaqt o‘tgan sari ortib borayotganini kuzatish mumkin. An‘anaviy-analitik tilshunoslik yangi asr bo‘lag‘asi va boshida yetakchilik qilgan sistem-struktur tilshunoslikning shakllanishi, taraqqiy etishi uchun tayanchlik vazifasini o‘tabgina qolgani yo‘q, uning oldiga qo‘yilgan, sistem-struktur tilshunoslik asoschilaridan biri, zakiy tilshunos Hamid Ne‘matov haqli ravishda ta‘kidlab ko‘rsatib o‘tgan quyidagi ulkan ilmiy-amaliy, tashkiliy, ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga molik muammolar:

- ommaviy savodxonlikni ta‘minlash;
- zamonaviy adabiy til me‘yorlarini ishlab chiqish;
- adabiy til me‘yorlarini ommalashtirish

kabi o‘z davri uchun o‘ta zarur va dolzarb bo‘lgan masalalar yechimini ham havas qilsa, o‘rnak olsa arzigulik bir tarzda bajarishga muvaffaq bo‘ldi [Сайфуллаева ва б. 2009: 3]. U samarali faoliyat ko‘rsatgan qariyb yetmish yillik davrda tilshunoslikning ham, unga asoslangan til ta‘limi, til amaliyotining ham butun diqqat-e‘tibori yuqorida qayd etilgan dolzarb hayotiy ehtiyojlarni

qondirishga qaratildi va bu borada - nazariyada ham, amaliyotda ham - hech qachon ahamiyatini yo‘qotmaydigan fundamental tadqiqotlar, nodir asarlar o‘quv adabiyotlari yaratildi, chindan ulug‘ va salmoqli ta‘lim-tarbiyaviy ishlar amalga oshirildi. [Bu yo‘nalish namoyandalari va ularning fan taraqqiyotidagi xizmatlari haqida qarang:Шукров, Базарова, 1986; Узоқов, 1972, Нурмонов, 2002]. Asoschilari A.Fitrat, A.G ‘ulomov, yetuk namoyandalari F.Abdullayev, G.Abdurahmonov, M.Asqarova, O.Azizov, A.Borovkov, A.Hojiyev, S.Ibrohimov, F.Kamolov, A.Kononov, M.Mirzayev, A.Muxtorov, I.Rasulov, V.V.Reshetov, A.Rustamov, U.Tursunov, X.Xoliyorov, R.Qo ‘ng ‘urov, Sh.Shoabdirahmonov, H.Jamolxonov, N. Mahmudov kabilar va bu yerda hammamizga ma‘lum sabablarga ko‘ra nomlari keltirib o‘tilmagan yuzlab zakovatli tilshunos olimlar, ona tili ta‘limi va amaliyoti fidoyilari, ularning maslakdoshlari, iste‘dodli izdoshlari, shogirdlari bo‘lgan o‘zbek an‘anaviy-analitik tilshunosligiga oid ilmiy-amaliy meros tilshunosligimiz tarixida munosib o‘rniga ega va haqli ravishda til ilmi va til ta‘limining oltin fondidan joy olgan. Shu munosabat bilan, antroposentrik tilshunoslikning turli yo‘nalishlarini takomillashtirish, taraqqiyotini ta‘minlash muammo-masalalari kun tartibidan mustahkam o‘rin olib borayotgan hozirgi paytda yoshlarni va kelajak avlodlarni an‘anaviy-analitik tilshunoslik yutuqlari hisoblangan ana shu ilmiy meros‘dan bahramand qilish bilan ham astoydil shug‘ulanish ham qarz, ham farz maqomidagi ishlarimizdan biri hisoblanishi lozimligini ta‘kidlab o‘tmoqchimiz.

Afsuski, bu borada hanuzgacha eskicha fikrlashdan to‘la qutula olmayapmiz. Ilmiy ish, o‘quv qo‘llanmalarining adabiyotlar ro‘yxatiga istiqloqlning dastlabki yillarida mustaqillikdan keyin yaratilgan ilmiy, o‘quv adabiyotlarnigina kiritish talabi qo‘yilgani va ba‘zi hollarda bu ilmga, ta‘lim-tarbiyaga zid holat hozir ham davom etayotgani shunday fikrlashning xunuk bir ko‘rinishi. Vaholanki, har qanday yangilik eskining bag‘rida unib-o‘sadi, kurtak yozib, gullab-yashnaydi. Yangining zamini, ildizi osmonda, g‘oyibda emas, yerda, eskida. Yangi tarix eskini faktan, jisman yo‘qotish, uloqtirib tashlash evaziga emas, ilman, mantiqiy-ma‘rifiy yo‘l bilan qiyoslash, eskining yutuqlari-yu kamchiliklari, yangining esa kuch-qudrati, afzalliklarini ko‘rsatib berish, dalillash, juda zarur bo‘lsa, shu asnoda eskining ayrim jihatlarini nazariy va amaliy inkor qilish bilan yaratiladi. Buni pisand qilmaslikning “mukofot”i xursand qilmasligi aniq. Biz tarixiy eskini topnonchalasak, kelajak bizni zambaraklashini esdan chiqarmasligimiz kerak. Ochiq yuz, teran ko‘z bilan qaraylik: yaqin tarix ham, uzoq tarix ham bizniki, bizning tariximiz. Ota-bobolarimiz, momolarimiz boshqalar bilan birga har ikkisida ham yashashgan, katta yo‘qotishlar, kamchiliklar bilan birga, topganlari ham ko‘p bo‘lgan, bugun ham o‘z o‘rniga ega yutuqlarga ham erishganlar. *Sizlar mustabid sovet davri odamlarisizlar, dunyoqarashlaring, mafkuralaring buzuq, bizga yot, yaroqsiz* deb ota-onalarimizni tarbiyalab voyaga yetkazgan o‘z bobo, enalarimizni uydan haydab, ulardan voz kechmaymiz-ku! Har ikkisi ham bizning qadriyatimiz, bizniki – bizning ulug‘larimiz, bizning ajdodimiz. Ularning avlodlari, davomchilari, merosxo‘rlari bizmiz – bugungi sahnada javlon urayotgan vorislar – boshqalar emas.

Tomirimizda oqayotgan qonning, boshimizni baland qilgan ong, tafakkurning, ko‘kragimizda urib turgan yurak, qalbimizni yorituvchi nur-ruhning ibtidosi, ota buloq, ona bulog‘imiz ularda, ular tufayli bizga, bugungi avlodlarga yetib kelgan. Buning uchun ayni bizning tanlanganimiz ilohiy qismat, taqdir taqozosi. Binobarin, tarix, tarixiy o‘tmish bor bo‘yicha, amalda mavjud holaticha – guruchi-yu kurmagi, lahmi-yu suyagi bilan – bizniki – bugungi hayot, yashab turganimiz zamon egalari bo‘lgan avlodniki. Binobarin, biz bizniki bo‘lgan mazkur tarixni qanday bo‘lsa, shunday qabul qilamiz va shunga mahkummiz. Qabul qilganimiz tarixga munosabat bildirish, baho berish –, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish – shundan keyingina amalga oshiriladigan chuqur mushohadatalab, nozik subyektiv-intellektual jarayon. Ungacha bu tarixga til yoki tig‘ tekizishga, qandaydir maqsad bilan qo‘l urishga, kesib, yirtib tashlash u yoqda tursun, arzimas bo‘lsin biron o‘zgartish kiritishga haqli emasmiz. Tarixiy haqiqat qonuniyati bu. Uni buzayotganlar, buzib ko‘rsatayotganlar, shunday say‘i harakatdagilar yaxshi ish qilmayaptilar va aniqki, maqsadlariga erishmaydilar. Zamonaviy tarix undan oldingi tarixni bugunga yoki o‘z dunyoqarashiga moslab-moslashtirib ko‘rsatish evaziga yaratilmaydi. Bunday qilish, shunga intilish yaxshi natija ham bermaydi, aksincha, eskining qimmatini, obro‘si, ahamiyatini oshiradi, kamchiliklarini pardalashga, arzimasdek tuyulishiga, e‘tibor bermaslikka olib keladi. Bunday holatlar bo‘lmayapti, deb ham bo‘lmaydi. Oramizda qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarayotganlar yoki bundan ham battar ishlarga qo‘l urayotganlar yo‘qmi?! (Yo‘q bo‘lsa, qani edi.)

Shu singari sovet tilshunosligida haqli ravishda yetakchilik qilgan rus tilshunosligi (buni kim inkor qiladi?!) ta‘siridagi o‘zbek tilshunosligida va ona tilimiz – o‘zbek tili ta‘limi va til amaliyotida jiddiy yo‘qotishlar, yetishmovchiliklar, nazariy va amaliy kamchiliklar bilan birga, yuqorida ta‘kidlaganimiz kabi keng ko‘lamli ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik ilmiy-amaliy tadqiqot, tashkiliy, targ‘ibot-tashviqot, ta‘lim-tarbiyaviy ishlar amalga oshirilgani rad etib bo‘lmas tarixiy haqiqatdir. Ular orqali erishilgan salmoqli ilmiy-amaliy yutuqlarni, aniq va izchil, bevosita kuzatishda berilgan, o‘zbek tilining o‘zidan olingan tipik asos-dalilli, fonetik, grafik, orfografik, orfoepik, leksik-frazeologik, grammatik, morfologik, sintaktik, uslubiy tasnif, talqin-tavsiflarni “mustabidlik davri mafkurasi ta‘sirida yaratilgan” yorlig‘i bilan chetga surib, o‘qimaslik, o‘rganmaslik, o‘rgatmaslik qanchalik omilik, ziddimilliylik, ziddimustaqillik. Vaholanki, ularning lingvistik asosi necha yillik mashaqqatli sinchkov kuzatish, muntazam izlanishlar, tinimsiz aqliy mehnat davomida kashf qilingan ilmiy haqiqatlar hisoblanadi. O‘z umrini yashab, oshini oshab, tarixga aylangan qandaydir mafkuradan qo‘rqib, havfsirab, ularni, sovet davrida yaratilgan tilshunoslikka doir adabiyotlarni ko‘zdan panada, kutubxonalarning yerto‘lasida saqlashimiz, o‘qish uchun tavsiya qilmasligimiz, darslarda ko‘rgazmali-ko‘rsatmali qurol sifatida foydalanmasligimiz qanshalik to‘g‘ri? Urug‘i yildan yilga ko‘payib borayotgan yangi darsliklarimiz, o‘quv qo‘llanmalarimiz, metodik adabiyotlarimiz ulardan qanchalik ustun-u nechog‘lik afzal? Ona tili o‘qituvchilari-yu talaba, magistrantlar fikriga qaraganda, sira unchalikka o‘xshamaydi. Ularning

ko‘pchiligining sifat va samaradorligini eski deganlarimiznikidan yuqori deb bo‘lmaydi. Qolaversa, yangi degan o‘quv, ilmiy adabiyotlarimizning taxminan 60-70 foizdan nari-berisi eski ilmiy haqiqatlar yoki ularning kosmetik ishlov berilgan nusxasidan boshqa narsamikan? Eski deb atayotganimiz ilmiy haqiqatlar aslida eski ham emas. O‘z lingvistik asosi, o‘zbek tilining o‘zidan olingan xarakterli nutqiy daliliga ega ilmiy haqiqatlar hech qachon eskirmaydi – o‘zbek tili bor ekan, tarixiy-ilmiy haqiqatlarga sodiqlar bilan birga ularning ishlari, hayot-faoliyatlarida yashayveradi.

Ular, darhaqiqat, puxta ilmiy-amaliy asosli bo‘lganligi sabab zamonaviy tilshunoslik uchun ham, til ta‘limi uchun ham beminnat xizmat qiladi va qilyapti ham. Tilshunoslikka doir biron asar, o‘quv adabiyoti yo‘qki, unda an‘anaviy-analitik tilshunoslikda erishilgan yutuqlar, olingan natijalar boshqalariga qaraganda ko‘proq va kengroq aks etmagan bo‘lsin. Misol uchun, tilshunoslik terminlari va ularga oid ta‘rif, tavsiflarning asosiy ko‘pchiligi an‘anaviy-analitik tilshunoslikda ishlab chiqilgan izohli ma‘lumot-maqolalarga asoslangan. Tilga oid terminologik lug‘atlar doirasida ham ushbu tilshunoslik asosiy ulushdor. Til, til birliklari haqidagi bilimlarimiz, tasavvur-tushunchalarimiz, hukm-xulosalarimizda ham ko‘pincha an‘anaviy-analitik tilshunoslik natijalari salmoqli o‘rin tutadi. Ko‘pchiligimiz til haqida fikr-mulohaza yuritishda aksariyat hollarda an‘anaviy-analitik tilshunoslik natijalariga murojaat qilamiz, ulardan unumli foydalanamiz, o‘z nuqtayi nazarimizni ham ular asosida yoki ularni nazarda tutib bayon qilamiz. Hozircha bu borada aytganlarimizni inkor qiladigan ochilmagan qo‘riq kashf etilgani yo‘q. Shunday bo‘lishi mumkinmi o‘zi? A.Fitrat, A.G‘ulomov, S.Usmonov, A.Hojiyev, G‘.Abdurahmonov, M. Asqarova, Sh.Shoabdurahmonov, E. Begmatov, H. Jamolxonov, R. Qo‘ng‘irov, N. Mahmudov singari mumtoz tilshunoslarimiz kashf qilgan ilmiy haqiqatlar eng ishonchli manba, tayanch ta‘limotlar sifatida yangi ilmiy-nazariy, amaliy-metodik adabiyotlarimizning deyarli barchasida biridan ikkinchisiga ko‘chib yuruvchi “mehmon-u mezbon” ma‘lumotlar hisoblanadi. Antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari ham bundan mustasno emas, albatta. Chunki ular ham mohiyatan, asosan, an‘anaviy-analitik tilshunoslik aniqlab, tasnif –u tavsiflagan til birliklarining shaxs omili bilan bog‘liq lingvopragmatik belgi-xususiyatlarining ilmiy tavsifidir.

Xuddi shunga o‘xshash, ammo namoyon bo‘lish yo‘sini boshqacharoq tarixiy haqiqatni sistem-struktur tilshunoslik va unga asoslanib amalga oshirilgan, oshiriladigan til ta‘limida ham ko‘rish mumkin. Ma‘lumki, ona til uchun kurash qizg‘in tus olib, unga *davlat tili* maqomi berilishiga erishilishi va istiqlol sharofati bilan o‘tgan asrning 90-yillarida tarixda ilk bor shu davrgacha hukm surgan yuqorida alohida e‘tibor qaratib tavsiflaganimiz o‘zbek an‘anaviy-analitik tilshunosligi va ona tili ta‘limi mazmuniga jiddiy o‘zgarishlar kiritilib, istasa-istamasa rus tilshunosligi soyasida rivojlanishga majbur bo‘lgan tilshunosligimiz mustaqillik g‘oyalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan yangicha g‘oya, nuqtayi nazar, qarashlar, tadqiq tamoyillari, struktur metod va usullar, ma‘lumot-materiallar bilan boyitilgan milliy tilshunoslik maktabi, o‘ziga xos lingvistik ta‘limot darajasiga ko‘tarildi [Иванов, 1969; Nurmonov, Iskandarova,

Nabiyeva, 2006:47-51; Бозоров О., Бозоров О. АНЪАНАВИЙ ВА СИСТЕМАВИЙ ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ//ЎТА, 2009, 3-сон, 44-51-б. Nigmatov va b., 1984:3-10; Rasulov, 1989; Nurmonov, Mahmudov, Solixo‘jayeva, 1992; Abduazizov, 1992; Ne‘matov, Bozorov, 1993,1997; Shahobiddinova, 1994; Abuzalova, 1994; Sayfullayeva, 1994; Ne‘matov, Rasulov,1995; Mahmudov, Nurmonov, 1995; Mengliyev, 1996; Orifjonova, 1996; Raupova, 1999; Nurmonov va b.,2001; Rahmatullayev, 2006].

Tilning, til birliklarining bevosita kuzatishda berilgan moddiy tomoni tashkil etuvchilarini tasniflash va tavsiflashni yuqori saviyada o‘rniga qo‘ygan an‘naviy-analitik tilshunoslikdan farqli o‘laroq, tilni o‘zaro bog‘liq va shartlangan lison va nutqdan iborat dual funksional sistema sifatida talqin qilgan sistem-struktur tilshunoslik quyidagi kabi e‘tibor va e‘tirofga loyiq ilmiy natijalarga erishdi:

1. O‘zbek tilshunosligida ilk bor jiddiy ravishda “...tadqiq manbayi haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayonida dialektik gnoseologiya, jumladan, dialektik-logik kategoriyalardan ongillik va izchillik bilan foydalanish - metodologiya masalalarini o‘rtaga qo‘ydi” [Qurbonova, 2002: 5]. Bu ta‘limotda *til birligining umumiy ma‘no-vazifasini aniqlash va belgilash tayanch nuqta hisoblanadi va bu mohiyat uning sistemaviy sifatleri va munosabatlari jamidan axtariladi. Shuning uchun sistem-struktur tilshunoslikda nutqiy ma‘no va vazifalar tasodifiy, sof kontekstual hodisa sanalmay, til birligining mohiyatiga oid ma‘lum imkoniyatlar (lisoniy umumiy ma‘nolar)ning voqelanishi hisoblanib, qat‘iy qonuniyatlar asosida talqin qilinadi* [Qurbonova, 2002: 5. Ta‘kid bizniki – A. J.]. Bu qonuniyatlar tilning bevosita kuzatishda berilmagan, psixik muhr, akustik obraz (F.de Sossyur ta‘birlari) holatdagi lisoniy tomonini (lisoniy tilni) tashkil etuvchi paradigmalarning o‘zaro pog‘onali butunlik hosil qilishida hamda bu paradigmalardagi birliklardan zarurlarining tafakkur jarayonida real nutqiy vaziyat talabi va so‘zlovchi maqsadi, imkoniyatiga ko‘ra harakatga keltirilib, faollashtirilib, doimiy ravishda fikrni shakllantiruvchi turli xil gaplarni hosil qilish va ifodalashga jalb etib turilishida va buning natijasida uzluksiz ravishda nutq deb atalgan fikriy mazmunli sintagmatik lingvistik tuzilmaning vujudga kelib turishida o‘z ifodasini topishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

2. Bugun sistem-struktur tilshunoslikda belgilangan lisoniy va nutqiy, nutq birliklarining tilning ikki xil mavjudlik holatiga mansub farqli hodisalar ekanligi, tabiatan farqlanishi ko‘pchilik tomonidan e‘tirof etilgan lingvistik haqiqatlardir. E‘tirof etmagan ozchilik narsaning mohiyati uning o‘zi, o‘ziga o‘xshash va o‘ziga o‘xshamagan, o‘zidan boshqa, undan yuqori va quyi birliklar bilan bo‘lgan sintagmatik, pog‘onali sistemaviy munosabatlarini aniqlash va umumlashtirib belgilash orqali ochilishini e‘tibordan chetda qoldiradilar. Vaholanki, “Gnoseologiya (bilish umumiy nazariyasi) dan ma‘lumki, xususiylik umumiylikka (demak, hodisa – mohiyatga, imkoniyat – voqelikka, sabab – oqibatga) nisbat berilmaguncha, u ta‘riflangan, tavsiflangan, o‘rganilgan deb sanalishi mumkin emas” [Sайфуллаева, 2009: 5] Mohiyat hamma vaqt xususiyliklar, alohidaliklar bilan birga, ular orqali namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda har bir alohidalik mohiyatning o‘ziga xos bir ko‘rinishi, tajallisi hisoblanadi. Aslida nutqiy birliklar,

nutq birliklari u yoki bu lisoniy mohiyat zarralarining namoyon bo‘lishidir [Неъматов, Бозоров, 1993; Абузалова, 1994; Шаҳобиддинова, 1994; Неъматов, Расулов, 1995; Нурмонов ва б., 2001].

3. Tilga sistem(-struktur) yondashuv, ayniqsa, o‘zbek tili sintaksisida uzoq yillardan beri munozarali bo‘lib kelgan eng dolzarb muammo - gapni gap qilib turgan asosiy narsa nima ekanligi to‘g‘risida, nihoyat, qat’iy qarorga kelinishida muhim rol o‘ynadi: bu narsaning predikativlik (kesimlik) kategoriyasi bilan shakllangan kesim ekanligi yangicha qarashlar bilan ilmiy asoslab berildi. Sistem-struktur tilshunoslikning semantik-funksional yo‘nalishida gapning grammatik asosi masalasi qat’iy ravishda kesim foydasiga hal qilinib: “O‘zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo‘lak kesimdir. Kesim gapning markaziy bo‘lagi bo‘lganligidan gapning butun tavsifi – grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkor, shaxs-(personallik), zamon(temporallik), kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. ...Kesim predikativ shaklga ega bo‘lgani uchun u gapda nisbatan emas, balki bevosita belgilanadi” [Mahmudov, Nurmonov, 1995: 66-67] degan qarash ilgari surilgan bo‘lsa, formal-funksional(substansial) yo‘nalishda ham kesim: “Tasdiq-inkor, modallik-mayl, zamon, shaxs-son ma‘nolarini (ya‘ni kesimlik kategoriyasi ([Pm])ni o‘zida mujassamlashtiruvchi bo‘lak, gapning markazi” [Sayfullayeva, 2009: 261] hisoblanadi. Gapning va gap bo‘laklarining yangicha talqinlariga gapga o‘zbek tilshunosligida birinchi marta “Kesimlik kategoriyasi bilan shakllangan atov birligi va unga qo‘shilib kelgan tobe so‘zlar tizimi (ya‘ni [WPm])” [Nigmatov va b., 1984: 3-10] degan grammatik ta‘rif berilgani muhim nazariy-metodologik asos bo‘ldi.

Bir cho‘qqili gap va kesimlik (predikativlik) kategoriyasi nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, grammatik yoki semantik jihatdan kesimda ifoda topgan predikativlik(kesimlik) kategoriyasi tufayli uni o‘zida mujassam etgan har qanday til birligi nutqda fikr ifodalovchi gap sifatida tugallangan ohang bilan aytilish, qo‘llanish va qabul qilinish, uqilish xususiyatiga ega bo‘ladi va gap hisoblanadi.

4. Sistem-struktur tilshunoslik ishlab chiqqan grammatik ta‘limotda kesimlik kategoriyasi asosiy o‘rin tutadi. Zero, gapni gap qilib turgan narsa kesim bo‘lsa, kesimni kesim qilib turgan narsa kesimlik kategoriyasidir. Bunga gapdan kesimni, kesimdan esa kesimlik kategoriyasini olib tashlash bilan to‘la ishonch hosil qilish mumkin. Kesim bo‘lmasa, gap, kesimlik kategoriyasi bo‘lmasa, kesim shakllanmaydi. Gap deb atalgan sintaktik butunlikda aynan va faqat kesimga, kesim bo‘lish layoqatiga ega birlikka shunday vazifa – gapni gap qilish vazifasi yuklatilgan va buning uchun u semantik yoki grammatik, intonatsion jihatdan kesimlik kategoriyasi bilan shakllangan, tavsiflangan bo‘lishi shart bo‘ladi.

Ayni o‘rinda yana shu narsani ham aytib o‘tish joiz va muhimki, sistem-struktur yondashuv asosida talqin qilingan kesim va kesimlik (predikativlik) kategoriyasi nafaqat gapning, balki, gap bo‘laklarining va qo‘shma gaplarning maqomi, mavqeyini, gapning sintaktik tuzilishi, tashkil etuvchilarini to‘g‘ri aniqlash mexanizmi, mezoni, nazariy o‘lchov vazifasini ham o‘tadi va o‘tamoqda. Bunga ko‘ra, kesimdagi kategorial ma‘nolar(tasdiq-inkor, mayl-modallik, zamon,

shaxs-son)ga ega predikativ grammatik ko‘rsatkichlarga bevosita bog‘lanib, ularni aniqlashtirib keladigan nutqiy birliklarga gap bo‘lagi, bunday xususiyatga ega bo‘lmaganlar gap bo‘lagi hisoblanmaydi (gap bo‘lagining bo‘lagi bo‘ladi) [Sayfullayeva, 2009: 253-257]. Shunisi qiziqarli va e‘tibor berishga loyiqki, bevosita kesimlik kategoriyasiga bog‘lanmasa, ega + kesim modelidagi predikativ sintagmalar ham, hol va to‘ldiruvchilar ham o‘zlari ishtirok etayotgan nopredikativ birikmalar tarkibida bo‘lakning bo‘lagi maqomida bo‘ladi. Demak, kesimlik kategoriyasi funksional va nofunksional gap bo‘laklarini farqlash uchun ham mezon vazifasini o‘taydi [Mahmudov, 1981:43-46; Abdusamatov, 1994; Mahmudov, Nurmonov, 1995; Raupova,1999]. Shu o‘rinda bo‘lakning bo‘lagi maqomi o‘zbek tilshunosligida birinchi marta professor Sh.Rahmatullayev [Raxmatullayev, 1968: 32-34] tomonidan kashf qilinganini aytib o‘tish joiz.

5.O‘zbek sistem-struktur tilshunosligi sintaktik ta‘limotida gap bo‘laklarining an’anaviy ta‘limotiga tayanib ishlab chiqilgan quyidagi qarashlar ham bizning gap va gap bo‘lagi to‘g‘risidagi tushunchalarimizni yanada aniqlashtirib,to‘ldiradi va boyitadi: *“...Eganing kesim kengaytiruvchisi sifatida e‘tirof etilishi uning gap tuzilishida semantik va grammatik markaz rolini o‘ynashi haqidagi shu kungacha mavjud bo‘lgan qarashlarni rad qiladi. Bu esa gaplarni bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarga ajratishga ham asos qoldirmaydi.*

...gapning ichki sintaktik tuzilishi ierarxik tabiatga ega bo‘lib, gap bo‘laklaridan va bo‘lakning bo‘laklaridan tashkil topadi. Bo‘laklarga bo‘linmaydigan, faqat kesimning o‘zidan tashkil topgan gaplar yig‘iq, gapning bo‘laklari va bo‘lakning bo‘laklari bilan kengaygan gap yoyiq; uyushiq, ajratilgan bo‘laklar bilan kengaygan bo‘laklar murakkablashgan, kirish, undalmalar ishtirok etgan gaplar esa murakkab sodda gaplar sanaladi (Ta‘kidlar bizniki – A.J.)” [Nurmonov, 2009: 35- 38]

6. O‘zbek sistem-struktur tilshunosligining, xususan, uning substansial tilshunoslik yo‘nalishi tilshunoslikka dialektikaning oraliq uchinchi qonuniyatini olib kirgani tilshunoslikda yangicha natijalarga olib keldi (va bu jarayon davom etmoqda). Morfologiyada mustaqil so‘zlar tarkibining taqlidiy so‘zlar hisobiga kengayishi, nomustaqil leksemalarning, fe‘lda o‘zgalovchi kategoriyaning, leksikologiyada graduonimiya, giponimiya, partonimiya, ierarxiya, lug‘aviy muayyanlashishning, sathlar integratsiyasida mazmuniy maydonlarning aniqlanishi, kashf etilishi ana shular jumlasidandir. Semantik-funksional yo‘nalishda antisemiya, enantiosemiya hodisalari aniqlanib, ularning semantik tabiati, uslubiy ma‘no-vazifalari, badiiy ifoda imkoniyatlari ochib berilishi o‘zbek tilining leksik-semantik munosabatlari tadqiqida yangi sahifa ochdi.

Shunday qilib, Yevropada XX yuzyillikning yigirmanchi yillarida shakllangan struktur tilshunoslik asoslari, xususan, tilning shartli belgilik tabiatining ochilgani, lison va nutqning ilmiy asosda farqlangani til ilmida tub burilish yasadi. Yevropa, Amerika va Osiyodagi kabi ko‘plab milliy tilshunoslik yo‘nalishlarining taraqqiyotida yangicha nazariy tayanch, dasturilamallik vazifasini o‘tadi. Tilshunoslikning haqiqiy obyekti, predmetini aniqlash va belgilash masalasida o‘zidan va undan avvalgi tilshunosliklardan farqli o‘laroq, to‘g‘ri yo‘l

tanlanishiga sababchi bo‘ldi, tilshunoslik tilga, til belgisiga mos to‘g‘ri yo‘nalish oldi. Antroposentrik tilshunoslikning yuzaga kelishi sistem-struktur tilshunoslik tomonidan aniqlangan til belgisining dastlab an‘anaviy-analitik tilshunoslik tomonidan boshlangan amaliy-pragmatik tomoniga e‘tiborning – uning o‘z egasi – insonga, shaxsga yo‘nalish olishi, tilshunoslik obyekti va predmetiga shaxs omilining qo‘shilishi va faollashib, markaziy o‘ringa ko‘tarilishi natijasidir. Bu esa tilning haqiqiy mohiyati, mazmun-mundariyasi shaxs bilan, uning intellektual-hissiy olami, ijtimoiy tabiati bilan belgilanishini, tilshunoslik aylanib-aylanib o‘z qozig‘ini topganini anglatadi. Aslida ham, til odamning o‘zini va o‘zi ham uning bir qismi, ajralmas bo‘lagi, yaratish, yangilash imkoniyatiga ega bo‘lgan eng oliy maqomli tashkil etuvchisi bo‘lgan olamiy narsa- hodisalarni hissiy-intellektual, fahmiy-idrokiy, oddiy-falsafiy, bevosita va bilvosita, ijtimoiy-individual bilish natijalarining muayyan tovushli qiyofa yoki harfiy ifoda shaklida namoyon bo‘lishi, voqelanishidir. Ana shu ijtimoiy-individual(shaxsli) lingvistik olam manzaralarining sanog‘iga yetish ham qiyin bo‘lgan lingvopragmatik belgi-xususiyatlarini aniqlash va belgilash, ochilmagan qirralarini kashf qilish zamonaviy tilshunoslikning asosiy, hal etilishi nihoyatda muhim va zarur bo‘lgan eng dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Demak, o‘zbek tilshunosligida va o‘zbek tili ta‘limi, amaliyotida har uch – an‘anaviy-analitik tilshunoslikning ham, sistem-struktur tilshunoslikning ham va albatta, antroposentrik tilshunoslikning ham o‘ziga yarasha ulushi, hissasi, o‘rni, ahamiyati bor. Buni tilning, til birliklarining har qanday an‘anaviy, sistem-struktur, antroposentrik talqinida kuzatish mumkin. Ularning dastlabki ikkisi tarixiylik tamoyiliga ko‘ra Yangi O‘zbekistonning noyob lisoniy merosi sifatida alohida e‘tibor bilan o‘rganilishi, o‘qitilishi zarur. Antroposentrik talqinlar esa tilning ontologik shaxsli tabiatiga mutanosibligiga ko‘ra ulardan ustuvor maqomdagi zamonaviy lingvistik qadriyat hisoblanadi va shu sababli shiddat bilan shaxs hayotining barcha jabhalariga kirib borib, tilning shu paytgacha e‘tibordan chetda qolgan, xayolga ham kelmagan amaliy ma‘no-vazifalarini kashf etishda samarali yurishini davom ettirmoqda. Har ikki yo‘nalishda ham faol qatnashish zamonaviy tilshunosning dolzarb vazifasidir. Yangi davr bizdan shuni kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тошкент, Ўқитувчи, 1992.
2. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. НД. Т., 1994.
3. Абдусаматов Р. Ўзбек тилида гап бўлақларининг ноамалий мавқеи масаласи: НДА - Самарканд, 1994.
4. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. ДДА. –Тошкент, 1997.
5. Бозоров О., Бозоров О. Анъанавий ва системавий тилшуносликнинг ўзаро муносабати//ЎТА,2009, 3-сон,44-51-б.
6. Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2001 – 283 б.

7. Иванов С.Н. Родословное древо тюрков Абул-Гази Хана. Грамматический очерк. Ташкент, Фан, 1969.
8. Лутфуллаева Д., Худойберганаева Д. Антропоцентрик тилшунослик йўналишлари. Ўқув-услубий мажмуа. Тошкент: 2016.
9. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012 – № 5 – Б. 6-7.
10. Mahmudov N. Funktsional va nofunktsional to‘ldiruvchilar haqida. O‘zbek tili va adabiyoti.
11. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Тошкент, 1995.
12. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабат. ДД. Тошкент, 2002. 466 б.
13. Нигматов Х., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Муҳаммедова Д.А., Нурмонов А.. Структура предложения: актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков, (тезисы формально-функционального исследования). Советская тюркология. 1984, №5. -с. 3-10.
14. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
15. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
16. Нурмонов А., Махмудов Н., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. -Тошкент: Фан, 1992.
17. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 250 б.
18. Нурмонов А., Искандарова Ш., Набиева Д. Анъанавий ва структур тилшунослик муносабатлари масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006, 6-сон, 47-51-б.
19. Нурмонов А. Гап ва унинг бўлаклари ҳақида мулоҳазалар // ЎТА, 2009, 2-сон. 35- 38- б-р.
20. Нурмонов ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, 2001.
21. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. НДА. Тошкент, 1996.
22. Қурбонова М. Содда гап синтаксиси учун материаллар. Тошкент, 2002.
23. Рахматуллаев Ш. Гапга, бирикмага доир баъзи тушунча ва терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. -1968. -№6.-Б.32-34.
24. Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T., 2006.
25. Расулов Р. Ўзбек тилидаги феълларнинг облигатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989. 141.
26. Раупова Л. Ўзбек тилида номустакил кесим масаласи ва [WPm] қурилишли гаплар: НДА -Тошкент, 1999.
27. Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. Тошкент: Фан, 1994.
28. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Фан, 2009.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbalarida ishlangan Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk'</i> ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775